Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "botanika" fanini o'qitish samaradorligini oshirishda elektron ta'lim resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish	707
<i>Nasirova Shahlo Qutbiddinovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda media ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xosligi	710
<i>Mahmudjanova Ro'za Mahmudjan qizi</i>	



MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va ommaviy sport samaradorligining tahliliy jihatlari.....	714
<i>Aslanova Malohat Akramovna</i>	
Differensial yondashuv asosida o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini rivojlantirish muhim omil sifatida.....	718
<i>Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Xokimjonova Feruza Hosiljon qizi</i>	
Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish faoliyati jarayonida oliy ta'lim muassasalari talabalarining sog'lom turmush tarzini shakllantirish	721
<i>Ne'matova Diyora Dilshod qizi</i>	
Sport gimnastikasining yoshlar jismoniy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati	725
<i>Pirimova Nargiza Adilovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi (3–6 yosh) bolalarda erta ingliz tili o'rganishning psixologik va pedagogik samaradorligi.....	728
<i>Xayrullayeva Muharramxon Davronbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning strategik yo'nalishlari	733
<i>O'tahanova Manzura G'ofurovna</i>	
Development of Intercultural Communication Competence of Future Teachers in Speaking Classes as an Important Lingvodidactic Problem: Evidence From Uzbekistan's Higher Education Context.....	736
<i>Muhammadiyeva Halima Saidahmadovna</i>	
Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda reflektiv topshiriqlarning o'rni .	749
<i>Altibayeva Malika Kuvandikovna</i>	
Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish muammolari va istiqbollari	752
<i>Ismailov Sarvarbek Anvarbekovich, Maxkamova Munavvarxon Alisher qizi</i>	
Psixolog talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning tarbiyaviy-psixologik determinantlari: muammolar va yechimlar	757
<i>Shukurova Nargiza Ikramovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning pedagogik salohiyati	762
<i>Xudoyberdiyev Sh. M.</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'lim metodlari va vositalari.....	766
<i>Esanbekova Fotima G'ayratjonovna</i>	
Чеховские традиции в прозе XX века (Бунин, Платонов, Шукшин)	770
<i>Багирова Паринисо Бобировна</i>	
Oliy ta'limda mustaqil ishlarni tashkillashtirishda nostandart testlardan foydalanishning samarali metodlari va metodik tavsiyalar.....	775
<i>Nurnazarova Gavharoy Baxtiyor qizi</i>	
Umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida oila obrazining kognitiv va emotsional komponentlari qiyosiy tahlili	780
<i>Toshtemirova Nigora Ibrohimovna</i>	
Boshlang'ich sinf "Tarbiya" darsligida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari g'oyalari integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari	784
<i>Tovoshova Ozoda Akmal qizi</i>	
Noto'liq oila farzandlarida emotsional-irodaviy sohani rivojlantirish orqali ijtimoiy deadaptatsiyani bartaraf etish.....	789
<i>Kaxarova Ozoda Abdimominovna</i>	
Kelajak pedagog shaxsini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining psixologik ta'siri...	793
<i>M. B. Pulatova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inson resurslarini boshqarish tushunchasining ilmiy-nazariy tahlili	796
<i>Maraimova Muxtabar Pulatovna</i>	
Kredit-modul modeli asosida kreativ ta'lim muhitini yaratish omillari va imkoniyatlari.....	801
<i>Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna</i>	



Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya modeli	805
<i>G'aniyeva Vazira Yusufvna</i>	
Xorijiy va mahalliy tajribada prognostik madaniyatni shakllantirish yondashuvlari	809
<i>Ziyoda Urinbayeva</i>	
The Role of Tolerance in the Professional Activities of Internal Affairs Bodies	813
<i>Toshpo'latov Anvar Shokir o'g'li</i>	
O'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda sharq mutaffakirlari merosidan foydalanish	818
<i>Eshquvvatov To'lqinjon Eshquvvatovich, Buronova Durdona Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda interfaol metodlar orqali integrativ faoliyatlarni tashkil etish	822
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	826
<i>Mirzaqobilova Sarvinoz Aliqul qizi</i>	
Zamonaviy jamiyatda ekologik mediamadaniyatni shakllantirish masalalari	832
<i>Marziyayev Janabay Kalibayevich</i>	
Alisher Navoiyning "Mahlub ul-qulub" asari asosida o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish	836
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi, Ravshanova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy karyera loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish	840
<i>Djalolova Sevara Xolmurodovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar	845
<i>G'ulomova Dildora Shoirvna</i>	
Rus tilini o'qitishda grammatik kompetensiyani kommunikativ metod yordamida shakllantirish: qoidalardan jonli muloqotga o'tish metodikasi	850
<i>Arabova Muhiba Bazarovna</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik muammo va ehtiyojlari	854
<i>Axrorova Munajat Mashraf qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	858
<i>Azizjonova Asilabonu Alisher qizi</i>	
Ta'limda innovatsion yondashuvlarning pedagogik-psixologik asoslari (pedagogik otm misolida).....	862
<i>Begmatova Dildora Saydaliyevna</i>	
Developing the Creativity of Primary School Students Through Art-Pedagogical Methods	866
<i>Dauletmuratova Bayramgul Makhsetbay kizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish yo'llari	871
<i>Farmanova Parvina Jamshid qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida arifmetik ko'nikmalarni mustahkamlash: zamonaviy ta'limdagi innovatsion yondashuvlar.....	875
<i>Izimbetova Amina</i>	
Matematika va o'yinlar nazariyasi: strategik qarorlarni modellashtirishda rivojlanish bosqichlari va amaliy ahamiyati.....	878
<i>Jumanazarova Shahzada</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari	881
<i>Laylo Berdiqulova Erkin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini integrativ yondashuv asosida o'stirish usullari.....	885
<i>Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna, Normengliyeva Sevinch Ulug'bek qizi</i>	
STEAM texnologiyasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish tamoyillari	889
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda maishiy ko'nikmalarni takomillashtirishning ilmiy nazariy asoslari.....	893
<i>Saydaliyeva Gavhar Burxon qizi</i>	

Fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish	896
<i>Sobirov Avazbek Anvarovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ayrim emotsional holatlar (injiqlik va emotsional reaktivlik)ni boshqarish	903
<i>Sultonova Nurxon Anvarovna</i>	
Teatr pedagogikasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va metodlari	907
<i>Tolipova Shohista Qudrat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning roli	911
<i>Turg'unova Gulzoda Botir qizi</i>	
Farzand tarbiyasida onaning psixologik va axloqiy ta'sirining amaliy jihatlari	916
<i>Tuxtaboyeva Durdonaxon Tulkunovna</i>	
Ontogenezning turli bosqichlarida shaxsning axloqiy rivojlanish xususiyatlari	919
<i>Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini metakognitiv monitoring qilish va baholashning nazariy-metodik asoslari	923
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiyada qo'llanilishi	927
<i>Yoqubova Gulhayo Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	931
<i>Bilolov Inomjon O'ktamovich</i>	
Karatening kelib chiqish tarixi	934
<i>Isayev Saidaliddinxon Islom o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga doir usul va vositalar	937
<i>Nishonova Kamola Shokirjon qizi, Mamadjonova Hayotxon Abduolim qizi</i>	
Родительские установки и развитие личности	941
<i>Кодирова Нилуфар Абдусаттор кизи</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	945
<i>Yusupova Umida</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlik va tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantirish mexanizmlari	950
<i>Kadirova Omaxon Sobirjonovna</i>	
Maktab ta'limi tizimida raqamli boshqaruv modelini joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish	954
<i>Raxmatova Xurshida G'ofurovna, Tangirov Xurram Ergashevich</i>	
Особенности влияния психолога дошкольной образовательной организации на психическое развитие ребенка в игровой среде	961
<i>Камолдинова Диёра Жалолиддин қизи</i>	
Boshlang'ich maktabda sog'lom ijtimoiy-pedagogik muhitni shakllantirish yo'llari	968
<i>Fayzidinova Maxsuda Akmalovna</i>	
Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy kompetentlikni shakllantirish: milliy va xalqaro pedagogik yondashuvlar	971
<i>N. R. Dushayeva</i>	
O'qish savodxonligini rivojlantirishda o'quvchilarning individual profili asosida moslashtirilgan didaktik yondashuvlarni ishlab chiqish	975
<i>Oripova Dilnozaxon Abduvosi qizi</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyalari	980
<i>Rabbimova Munisxon Mustafoyevna</i>	
O'qitishda san'at vositalaridan foydalanish genezisi va zamonaviy tajribalari	983
<i>Suvanova Kamola Raimqul qizi</i>	
Sun'iy intellekt muhitida ta'lim olish jarayonida talabalarning psixofiziologik holati va kognitiv yuklamasini baholash	989
<i>Turayeva Irodaxon Lochinbek qizi</i>	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning konfliktologik kompetentlikni rivojlantirish – dolzarb pedagogik muammo sifatida.....	993
Xadicha Muxammadiyeva Karomatovna, R. Rayimova	
The Influence of Digitalization on Written Communication.....	998
Yusupova Sitora Ashuraliyevna	



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARNING KONFLIKTOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH – DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Xadicha Muxammadiyeva Karomatovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

R. Rayimova

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrası PhD dotsenti,
TIIUniversiteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining konfliktli vaziyatlarda qanday yo'l tutishi va konfliktologik vaziyatlarning mohiyati yoritiladi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchisining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish masalalari hamda ushbu muammoning hozirgi kunda dolzarb ekanligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kommunikativ, agonistik, konfrontatsiya, agressiya, antagonistik, zo'ravonlik, konflikt, kompetentlik, ziddiyat, psixika, dominant.

Abstract: This article examines how future primary school teachers handle conflict situations and explains the nature of such situations. It also analyzes the development of conflict competence in primary school teachers and highlights the relevance of this issue in the current context.

Key words: communicative, agonistic, confrontation, aggression, antagonistic, violence, conflict, competence, contradiction, psyche, dominant.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос о том, как будущие учителя начальной школы справляются с конфликтными ситуациями и какова их сущность. Также анализируется развитие конфликтологической компетентности учителей начальной школы и подчеркивается актуальность данной проблемы в настоящее время.

Ключевые слова: коммуникативный, агонистический, конфронтация, агрессия, антагонистический, насилие, конфликт, компетентность, противоречие, психика, доминантный.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil 19-sentabrdagi 72-sessiyasida so'zlagan nutqida: "Bizning asosiy vazifamiz – o'quvchilarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir", – deb ta'kidlangan. Shu munosabat bilan O'zbekiston globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda o'quvchilarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning O'quvchilar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi.

"Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo'lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilish, sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish" ustuvor vazifalar etib belgilandi.

Konflikt o'zi nima? "Konflikt" atamasi "nizo" tushunchasining dastlabki ekvivalenti sanaladi. Bu fan o'rganadigan obyektlar nimalardan iborat? Konfliktlarning kelib chiqishi, sabab va oqibatlarini o'rganadigan fan "konfliktologiya" bo'lib, u lotincha "conflictus" – to'qnashuv, "logiya" – ta'limot degan ma'noni anglatadi. Demak, konfliktologiya to'qnashuv haqidagi ta'limot, ya'ni to'qnashuv haqidagi fan hisoblanadi. Konfliktning o'zaro ta'sir subyekti – alohida odam yoki odamlar guruhi. Konflikt – o'zaro qarama-qarshi bo'lgan ziddiyatli manfaatlar va munosabatlarning ochiq to'qnashuvi. Konflikt – o'zaro ta'sir (harakat) jarayonida paydo bo'ladigan jiddiy ziddiyatlarni hal qilishning eng keskin usuli bo'lib, konflikt subyektlari qarama-qarshiligidan iborat, odatda, salbiy his-kechinmalar (emotsiyalar) bilan kechadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik konflikt – ta'lim tizimida pedagogik konfliktlarning vujudga kelish sabablari va tabiatini o'rganadigan, ularni bartaraf etish usullari va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqadigan nazariy-amaliy yo'nalish hisoblanadi. Pedagogik konflikt ijtimoiy hayotda ko'p uchraydigan holat bo'lib, tabiiyki, jamiyatning kuchli ijtimoiy munosabatlari to'plangan bo'g'inlari, asosan, maktabda, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida ko'zga tashlanadi.

Ta'limda o'z "Men"ini qattiq hurmat qilishga odatlangan o'quvchi yoki talabalar orasida konfliktli munosabatlarning bo'lishi tabiiy hodisa. Lekin amaliy ko'nikmalarga, kuchli tayyorgarlikka ega bo'lmagan pedagog yoki rahbarlar ham konfliktli munosabatlarning vujudga kelishiga sharoit yaratib berishi mumkin. Pedagogik konfliktni pedagogika va psixologiya fanlari bir-biri bilan uzviy holda o'rganadi va hal qiladi. Ularning har ikkisi bitta umumiy jarayonni – insonning psixik faoliyati hamda uning xulq-atvorini tadqiq etadi. Bugungi kunda zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy-psixologik tayyorgarliksiz auditoriyaga kirishi mumkin emas. Shuning uchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarur.

Shaxs shakllanishida u yashayotgan muhit, kishilar va jamiyatning roli juda katta. Chunki ijtimoiy muhitdagi turli hodisalar odamning ongiga bevosita ta'sir qilib, unda chuqur iz qoldiradi. O'qituvchi shularni hisobga olgan holda bolalar psixikasi va xarakterini o'rganishi, shu asosda o'qitishning aniq va izchil tizimini ishlab chiqishi lozim. Konfliktlarni namoyon bo'lish turiga ko'ra ikkiga bo'lish mumkin: agonistik (murosaga keladigan) va antagonistik (murosasiz).

Agonistik konfliktlar uchun quyidagilar xos:

- konfrontatsiya (konflikt) – sotsial guruhlarning qarama-qarshi siyosiy, ekologik, sotsial manfaatlariga passiv qarshi turishi, bunda ochiq to'qnashuv shakli yuzaga kelmaydi, ammo farqli qarashlar mavjudligi sababli raqobatga o'tishi mumkin;
- raqiblik – alohida odam yoki jamoa yutuqlari va imkoniyatlari e'tirof etilishi uchun kurash bo'lib, uning maqsadi yaxshi sotsial pozitsiyaga ega bo'lish va e'tiborli natijalarga erishishdan iborat, vaqt o'tishi bilan raqobatga aylanishi mumkin;
- raqobat – konfliktning alohida turi bo'lib, undan maqsad foyda, daromad ko'rish yoki kamyob ne'matlarga erishishdir.

Antagonistik konfliktlarning quyidagi turlari mavjud:

- norozilik – mavjud holatdan aniq ifodalanmagan holda norozilik bildirish bo'lib, dastlab asabiylashuv ko'rinishida yuzaga keladi va asta-sekin nizoli vaziyatga aylanadi, keyinchalik aniq talablar shakllanadi, biroq ularning mohiyati har doim ham ravshan bo'lavermaydi;
- g'alayon – shaxs yoki jamoa agressiyasining jamoaviy norozilikni yuqori darajada uyushtirgan holda keskin ifodalanishi;
- qo'zg'olon – shaxs yoki jamoa agressiyasining aniq maqsadga yo'naltirilgan holda jamoaviy ifodasi;
- inqilob – konfliktning eng yuqori shakli bo'lib, mavjud siyosiy tuzumni ag'darish va ijtimoiy-iqtisodiy tizimni tubdan o'zgartirishni anglatadi, odatda zo'ravonlikka asoslangan harbiy usullar va keng ommaning ishtiroki bilan kechadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo'lajak pedagog-psixologlardan pedagogik-psixologik bilimdonlik talab etiladi. Bu esa pedagogik-psixologik treninglar yordamida amalga oshiriladi, odamlarda muloqot malakalari hosil qilinib, ular turli ijtimoiy sharoitlarda o'zini to'g'ri tutishga odatlantiriladi. Boshqacha aytganda, trening muloqotga o'rgatishdir. O'qituvchilar o'z faoliyatlarida o'quvchilarning dars intizomi bilan bog'liq bo'lgan muammolar, ya'ni o'quvchilarning



ta'limga, bilim olishga nisbatan salbiy munosabatiga duch kelishadi. Ular o'quvchilarga ma'lum talablarni qo'yadilar va o'quvchilar bu talablarga so'zsiz amal qiladilar, deb o'ylaydilar. O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlarni "ko'chadagi qarama-qarshi harakatga" qiyoslash mumkin, chunki o'quvchining o'qituvchiga munosabati konfliktli va muammoli xulq-atvor shaklida namoyon bo'ladi. Intizomga rioya qilmaydiganlarga nisbatan konstruktiv ta'sir samarali bo'lishi uchun bu xatti-harakatning asl motivlari nimadan iborat ekanligini aniqlash va shundan kelib chiqib, muammoning yechimini topish usullarini tanlash lozim. Bunday yondashuv o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro hurmatni shakllantiradi.

Kommunikatsiya:

- 1) bir shaxsdan ikkinchisiga, bir madaniy birlikdan boshqasiga axborot (g'oyalar, obrazlar, baholar, ko'rsatmalar) uzatish;
- 2) axborot almashinuvi ishtirokchilarini o'zaro bog'lab turuvchi kanal;
- 3) axborotni uzatish yoki qabul qilishga yordam beradigan o'zaro harakat, axborot uzatish yoki qabul qilish jarayoni.

Kommunikativ malakalar:

- bolalarni o'ziga jalb etishni bilishi;
- bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilishi;
- bolalarning jamoalararo va jamoa ichida o'zaro munosabatlarini tartibga solishni bilishi;
- bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog'lashni bilishi.

Kommunikativ muloqotning o'n uslubi:

- 1) dominant – kommunikatsiyada boshqalar roli (o'rni, ahamiyati)ni kamaytirishga yo'naltirilgan strategiya;
- 2) dramatik – ma'lumot (xabar) mazmunini bo'rttirish va unga emotsional bo'yoq berish;
- 3) bahsli – kommunikativ muloqotning tajovuzkor yoki isbotlashga qaratilgan uslubi;
- 4) tinchlantiruvchi – bo'shashtiradigan, ayniqsa, konfliktli vaziyatlarda hamsuhbatining xavotirini kamaytirishga qaratilgan muloqot uslubi;
- 5) taassurotli – muzokaralar bo'yicha hamkorda taassurot qoldirishga qaratilgan strategiya;
- 6) aniq – xabarning aniq-ravshanligiga qaratilgan;
- 7) e'tiborli – hamsuhbatlar kommunikativ muloqot jarayonida nimalarni so'zlayotganiga qiziqish bildirish;
- 8) ko'tarinki (ruhlangan) – noverbal axloq, ko'z, imo-ishora, tana harakatlari kabilardan tez-tez foydalanish;
- 9) do'stona – hamsuhbatini ochiq rag'batlantirish va uning muloqotga qo'shgan ulushidan manfaatdorlik;
- 10) ochiq-oydin – o'z fikri, his-tuyg'ulari, emotsiyalari, o'zligini, shaxsini qo'rqmay ifodalashga bo'lgan intilish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim jarayonini boshqarish

Ko'pgina pedagog-psixologlar ta'lim jarayonini tahlil qilar ekan, uni yetarli darajada boshqarib bo'lmaydigan jarayon deb ta'kidlaydilar. Lekin uni butunlay boshqarib bo'lmaydigan, stixiyali ravishda tartib topadigan jarayon deb atash noto'g'ri – bu hol aniq maqsadni ko'zlab ta'lim berish g'oyasining o'ziga zid bo'lar edi. Biroq o'qituvchi ta'limni tashkil etadi, unga rahbarlik qiladi, uni amalga oshiradi va yo'naltiradi, degan fakt ta'lim yetarli darajada boshqariladigan va tartibga solinadigan jarayondir, degan ma'noni anglatmaydi. Chunki biz boshqariladigan ta'lim deb shunday ta'limni ayta olamizki, bunda har bir bolaning harakatidagi har bir qadam nazorat qilinadi, o'qituvchi har bir o'quvchining har bir bosqichida muayyan bilimlarni o'zlashtirishi yoki muayyan ko'nikma va malakalar hosil qilishi haqida uzluksiz axborot olib turadi, yangi material avvalgi materialni o'zlashtirish xarakteriga qarab taqdim qilinadi.

Albatta, o'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirish jarayonini va aqliy rivojlanishning borishini har bir paytda, har bir o'quvchiga nisbatan hamma tafsilotda nazorat qilmaydi va nazorat qila olmaydi. O'qituvchi o'quvchilar tomonidan material qanday o'zlashtirilayotgani haqida juda umumiy tasavvurga-

gina ega bo'ladi, o'qitishda esa u odatda har kimning individual imkoniyatlarini emas, balki o'rtacha o'qiydigan o'quvchini nazarda tutadi. Mumkin bo'lgan yo'llardan biri – o'zlashtirish jarayonini berilgan topshiriqni o'zlashtirish jarayoni sifatida maxsus tashkil etishdir.

Ta'lim jarayonini boshqarish uchun o'qituvchi quyidagi tarkibiy qismlarni egallashi lozim:

- berilgan o'quv topshiriqlarini bajarish uchun vositalar tanlash;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish;
- o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar sifatini baholash;
- o'quv topshiriqlarining bajarilganligini tekshirish;
- o'z oldiga maqsad qo'ya olish;
- turli belgilar bilan predmetning ichki munosabatlari muvofiqligini ko'ra olish.

O'qituvchi psixologiyasi

O'qituvchining o'rni va uning vazifalari, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tibor qaratilishining naqadar muhim ahamiyatga egaligi aniqlanadi. Mamlakatimizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni hayotga tatbiq etish jarayonida o'qituvchining yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishdagi jamiyat oldidagi javobgarligi yanada ortib boradi. Hozirgi sharoitda jamiyatning maktab oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri hal qilish vazifasi o'qituvchiga bog'liqdir. Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi – sinfdagi o'quv jarayoni tashkilotchisidir. O'qituvchi o'quvchilar uchun dars paytida, qo'shimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbaidan biridir. Ko'pchilik o'qituvchilar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo'lib hisoblanadilar.

Hamkorlik – ta'lim jarayonining asosini tashkil qilishi lozim. Pedagogik konfliktlar yechimini topishga asoslangan pedagogik jarayonning tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsion usullar;
- insonparvarlikka asoslangan demokratik yondashuvlar;
- o'zaro ishchan muloqotga asoslangan dialog muhiti;
- ishchan pedagogik muhit.

Pedagogik konfliktni pedagogika va psixologiya fanlari bir-biri bilan uzviy holda o'rganadi va hal qiladi. Ularning har ikkisi bitta umumiy jarayonni – insonning psixik faoliyati hamda uning xulq-atvorini tadqiq etadi. Bugungi kunda zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy-psixologik tayyorgarliksiz auditoriyaga kirishi mumkin emas. Shuning uchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarur. Shaxs shakllanishida u yashayotgan muhit, kishilar va jamiyatning roli juda katta. Chunki ijtimoiy muhitdagi turli hodisalar odamning ongiga bevosita ta'sir qilib, unda chuqur iz qoldiradi. O'qituvchi shularni hisobga olgan holda bolalar psixikasi va xarakterini o'rganishi lozim.

XULOSA

Konfliktidagi agressiya va zo'ravonlik. Konfliktli vaziyatlarda ko'pincha agressiya va zo'ravonlik uchrab turadi. Agressiya va zo'ravonlikni konflikt yechimi sifatida qo'llash hollari mavjud. Ba'zilar tahdid qilish, shantaj, zo'ravonlikka o'tish orqali ziddiyatni yechish mumkin deb hisoblaydi. Ammo bu noto'g'ri qarash. Zo'ravonlik konflikt yechimi bo'la olmaydi, u konfliktni yanada kuchaytiradi, xolos. Konfliktni zo'ravonlikdan chiqarib, uni gumanistik talablar asosida ko'rib chiqish natijasida muammoni hal etish – haqiqiy yechim hisoblanadi.

Zo'ravonlik o'z kuchini muammoga qaratmagani, shu bilan birga insonlar hayotiga xavf tug'dirishi sababli konfliktning yechimi bo'la olmaydi. Aslida, zo'ravonlik konfliktni yanada chuqurlashtiradi. Zo'ravonlik tomonlarni hech qachon bir-biriga yaqinlashtirmaydi, balki uzoqlashtiradi, xolos. Pedagogik konfliktologiya nazariyasi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar ta'lim jarayonini insonparvarlashtirilgan, shaxsga yo'naltirilgan model sifatida baholaydilar. Chunki pedagogik konfliktga asoslangan pedagogik jarayonning maqsadi o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning erkinliklari va huquqlarini hurmat qilish asosida ta'lim-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishni nazarda tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ahmedova M.T., Rashidov H.F. Pedagogik konfliktlarni bartaraf etish dars intizomini yaxshilash omili sifatida // Maktab va hayot. – T., 2015. – 1-son. – B. 12–16.
2. Jumayev R.Z. Konfliktologiya asoslari, asosiy tushuncha va tamoyillari: o'quv qo'llanma. – 2015.
3. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2011. – 420 b.
4. Ahmedova M.T., Rashidov H.F. Pedagogik konfliktlarni bartaraf etish dars intizomini yaxshilash omili sifatida // Maktab va hayot. – T., 2015. – 1-son. – B. 12–16.
5. Ahmedova M.T., Shayzakova N.S. Nizolarning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar, shaxs toifalari va ularning xislatlari // Maktab va hayot. – T., 2014. – 2-son. – B. 2–4.
6. Ahmedova M.T., Umarova M.X. Balog'at yoshidagi o'smirlarning o'tish davridagi pedagogik va psixologik o'ziga xos xususiyatlari // Maktab va hayot. – T., 2015. – 7-son. – B. 8–10.
7. Babayeva M. va boshq. Yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va o'quv yurtining hamkorligini amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari // Oliy ta'lim muassasalari pedagog va boshqaruv kadrlarining malakasini oshirish nazariyasi va amaliyoti mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. I qism. – T.: TDPU, 2012. – B. 372–375.
8. Hodiyev B.Yu., Boltabayev M.R. Oliy o'quv yurtidagi tarbiyaviy ishlarga psixologik yondashuvlar. – T., 2009. – 119 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.